

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-10/2

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
 Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.
 Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович,
 т.ф.д., проф.
 Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
 Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.
 Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
 Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.
 Бобожонова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.
 Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
 Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
 Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
 Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
 Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
 Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
 Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
 Жуманиёзов Зоҳид Отабаевич, ф.ф.н., доц.
 Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.
 Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
 Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc
 Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
 Кутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.
 Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
 Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
 Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
 Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
 Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.

Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.
 Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
 Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
 Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,
 проф.
 Рахимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.н., доц.
 Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
 Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
 Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
 Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.
 Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
 Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
 Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
 Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
 Тожибаев Комилжон Шаробитдинович,
 б.ф.д., академик
 Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
 Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
 Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
 Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
 Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
 Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.
 Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
 Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
 Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
 Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.
 Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№10/2 (107), Хоразм
 Маъмун академияси, 2023 й. — 183 б. — Босма нашрнинг электрон варианты -
<http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими — Хоразм
 Маъмун академияси

МУНДАРИЖА ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Abdullaev A.J., Raimova D.D. Avtotransport sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'ektlarida outsorsing va undan foydalanishning afzalliklari	5
Abdurahmonova S.E. O'zbekiston temir yo'llarining rivojlanish imkoniyatlari va taraqqiyoti	8
Alimova D.T. Investitsiyani moliyalashtirishda aholi mablag'lari va tijorat amaliyotidagi ishtiroki	10
Allonazarov O.N. Mehmonxona xizmatlari bozorini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ustuvor yo'nalishlari	14
Axrorova N.U. Talaba va yoshlar sayohati turlari hamda uning xususiyatlari	18
Babajanov J.F. Mintaqada kambag'allikni qisqarishni omillari	22
Baytanov O'M. Oziq-ovqat korxonalarida mahsulot sifatini mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar	25
Donayev Sh.B. Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini baholash usullari	29
Kurpayanidi K.I. Economic transformation through institutional reforms: analysing challenges and perspectives of enterprise management	32
Matyakubov U.R. Marketing tadqiqotlari tizimining metodologik asoslari	36
Mirzayev A.T. O'zbekistonda turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish	40
Mirzayev S.A. Qurilish sanoati korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholash omillari	46
Nishonboyev D.E. Tadbirkorlik faoliyatining tashqi iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlari tizimi takomillashtirish	50
Qurbonova O. Mintaqada sanoat siyosatini shakllantirish ustuvor yo'nalishlari	54
Raxmonov S. Mintaqalarda innovatsion faoliyatini jadallashtirish ustuvor yo'nalishlari	57
Ruzimatov Sh.Kh. Chakana savdo korxonalarida brend nufuzini oshirishda inson resurslarini boshqarishning ahamiyati	60
Sattarov N.A. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qurilish korxonalar raqobatbardoshligining o'ziga xos xususiyatlari	66
Sattarov N.A. Qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning yo'nalishlari	69
Shakirova N.A. Tadbirkorlik sub'ektlarida aholi bandligini ta'minlashni muammolari va yechimlari	73
Xamroyeva M.B. Turizm sohasida xizmat ko'rsatish nosozliklari va ularni samarali bartaraf etish yo'llari	79
Абдутурапова Д.Ф. Ўзбекистонда суғурта муносабатлари ва ривожлантириш истикболлари	83
Атажонов Ж.О. Аграр соҳада кичик бизнес субъектлари кооперация алоқалари (КБСКА) ни ривожлантиришнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти	88
Ахмедов М.Ш. Персонал мотивациясининг япония тажрибаси таҳлили	93
Ембергенова А. Қорақолпоғистон Республикаси давлат музейларининг туризм соҳасидаги роли ва уларни бошқариш аҳамияти	97
Жумабаева Д.Т. Агротуризм фаолиятининг таснифланиши ва ташкил этиш хусусиятлари	103
Жўраева З.Т. Инсон капитали самардорлигини баҳолашда хориж тажрибасини қўллашнинг концептуал асослари	108
Қуйжанов Х.А. Саноат корхоналарида иқтисодий салоҳият тушунчасининг моҳияти ва ижтимоий-иқтисодий аҳамияти	113
Мадрахимов Қ., Маткаримова И.А. Миллий ҳисоблар тизимини ишлаб чиқариш фаолияти билан боғлиқ асосий счетлари ва уларни иқтисодий - статистик таҳлили	116

jalb qilishning qiyinligi hisoblanadi.

Xalqaro tajribasiga asoslanilsa, mehmonxona industriyasida innovatsion loyihalarni amalga oshirishning o'zini oqlash muddati ancha uzoq bo'lishi mumkinligi hamda ulardan olinadigan foyda to'g'ridan to'g'ri emas, balki bilvosita bo'lishi isbotlangan. Ammo innovatsiyalarni jalb qilinishi korxonaga ortiqcha xarajatlarni tejashga imkon beradi[9]. Mehmonxona biznesiga axborot texnologiyalarini joriy etishdagi yana bir muammo me'yoriy hujjatlarning dolzarbligi va innovatsiyalarni joriy etishdagi huquqiy to'siqlarning yo'qligi hisoblanadi. Bundan tashqari, mehmondo'stlik sanoatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini tadbiq qilish, amalga oshirilayotgan loyihalarning texnik va texnologik murakkablik darajasi bilan qiyinlashmoqda.

Xulosa o'rinida shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalar yuqori sur'atlarda takomillashib bormoqda, bu esa o'z navbatida mehmonxonalar biznesiga bevosita ta'sir qilib, ularni boshqarish texnologiyasini o'zgartirib, korxonalar samaradorligini oshiradi va kompaniyalar faoliyatiga innovatsiyalarni joriy qilish yordamida raqobatbardoshlik ustunligini ta'minlaydi. Xorazm viloyatida mehmonxona xo'jaligi korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirish va ulardan foydalanish nuqtai nazaridan baholashda shuni ta'kidlash lozimki, ko'p omillar mehmonxona boshqaruviga bog'liq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «Raqamli O'zbekiston -2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni
2. Manba: Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.
3. O. V. Voronova, V. A. Khareva, T. S. Khnykina, International scientific journal (1), 19-25 (2019).
4. S. A. Chunikhin, E. A. Kuzmin, L. V. Pushkareva, Entrepreneurship and Sustainability Issues 6(4), 1663–1679 (2019). doi:10.9770/jesi.2019.6.4(8).
5. A. R. Bril, O. V. Kalinina, I. V. Ilin, Proceedings of the 30th International Business Information Management Association Conference, IBIMA 2017, 2972-2980 (2017).
6. V. E. Stepanova, Modern Economy Success 6, 40-44 (2019).
7. Manba: Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi
8. T. S. Koval, M. A. Gritsay, Tourism industry: opportunities, priorities, challenges, and prospects 14(1), 294-302 (2019).
9. Jadhav, Vidyullata & Shivaji, Dhanshree & Mundhe, Shivaji. (2021). Information technology in Tourism.

UO'K: 338.48

TALABA VA YOSHLAR SAYOHATI TURLARI HAMDA UNING XUSUSIYATLARI N.U.Axrorova, doktorant, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti doktranti, Samarqand

Annotatsiya. Turizmning boshqa turlari qatorida talaba va yoshlar turizmi hozirgi sohaning asosiy tarmoqlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bundan tashqari, shuni aytish ham kerakki, turizm va mehmondo'stlik sanoatida yoshlar tomonidan qilinadigan nisbatan xarajat kam bo'lsa-da, statistik ma'lumotlar soha daromadining doimiyligi va umumiy miqdori yuqoriligini ko'rsatadi. Mazkur maqolada turli mamlakatlardagi talaba va yoshlar sayohatining mashhur turlari o'zining xususiyatlari bilan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar segmenti, talaba va yoshlar turizmi, tipologiya, sayohat xususiyatlari.

Аннотация. Среди других видов туризма молодежный туризм стал одной из основных отраслей современной индустрии. Кроме того, следует отметить, что, хотя расходы молодежи в индустрии туризма и гостеприимства ниже, статистика показывает, что этот доход в отрасль постоянен, а общая сумма высока. В данной статье описаны популярные виды молодежных путешествий по разным странам с их характеристиками.

Ключевые слова: молодежный сегмент, студенческий и молодежный туризм, типология, туристические характеристики.

Abstract. Among other types of tourism, Youth tourism has become one of the major sectors of the current field. Besides it should be considered that even though less money may be spent per a person than other segments, the preponderance of evidence can show the resilience and higher total amount of this money. Therefore, this article explores popular types of youth travel in different countries with its characteristics.

Keywords: *youth segment, student and youth tourism, typology, travel characteristics.*

Kirish. Yoshlar turizmi bir milliarddan ortiq xalqaro sayyohlarning 23% dan ortig'ini o'z ichiga olgan xalqaro turizmning eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylandi (Global Report on The Power of Youth Travel, UNWTO 2016) [1]. Britaniya Kengashining hisob-kitoblariga ko'ra, 2011-2020 yillarda Buyuk Britaniyadagi xalqaro talabalar soni 21 millionga, 178 milliondan 199 millionga ko'tarilishi prognoz qilinmoqda (HM Government 2013). 2017-yilda yoshlar va talabalar sayohatchilari tomonidan 27 milliard funt sterling hissa qo'shgan bo'lib, bu 2016-yilga nisbatan 5%ga ko'pdir. AQShda 1,094,79 nafar xalqaro talabalar va ularning sayohatlari to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita 455,622 ish o'rni yaratib, 2017-2018 o'quv yili davomida mamlakat iqtisodiyotiga 39 milliard AQSh dollarini tashkil etadi [2].

Yosh sayyohlar unchalik ko'p mablag'ga ega bo'lmasa-da, lekin yetarlicha bo'sh vaqti bor. Bu shuni anglatadiki, ular turistik yo'nalishlarda oddiy sayohatchilardan ko'ra uzoqroq qolishlari mumkin. Butunjahon Yoshlar, Talabalar, Ta'lim va Sayohat Konfederatsiyasi (WYSE Travel Confederation) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, 2013-yilda yosh sayohatchilar asosiy sayohatlarga o'rtacha jami 2160 AQSH dollari, global sayyohlar uchun esa o'rtacha 1 097 AQSh dollari sarflagan [1]. Shubhasiz, boshqa sayyohlarga qaraganda uzoqroq sayohat qilgan yosh sayohatchilar o'rtacha uchdan ikki baravar ko'p pul sarflashadi. Bundan tashqari, ular ko'pincha o'z sayohatlarini vositachilarsiz mustaqil ravishda rejalashtirishga harakat qilishadi, ya'ni ular mahalliy muassasalarda o'zlarining katta miqdordagi pullarini to'g'ridan-to'g'ri sarflashadi. Shubhasiz, bu mahalliy tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodini yaxshilashga olib keladi.

Talaba va yoshlar turizmi hamda sayohatini rivojlantirish uchun dastlab uning tizimini keng miqyosda takomillashtirish zarur, albatta, birinchi navbatda, yoshlar sayohatining turlari va xususiyatlarini o'rganish va keyinchalik uni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar tahlili. Yoshlar turizmi, uning shakllari, xususiyatlari, motivlari va omillari Richards G., Claudia MOISĂ, Elena N. Koroleva, Olga V. Semenchuk, Seekings, J. Horak, S. Weber, DEMETER T., BRĂTUCU G., Hudman, L.E., Holdnak, A., Holland, S., Adina Negruşa, Medet Yolal, Lingxu Zhou. kabi xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan Claudia Moisa (2010) fikriga ko'ra, XIX asrda yoshlar qatlami jamiyatda unchalik muhim o'ringa ega bo'lmagan, shuningdek, ular ergashgan ba'zi "modalar" G'arbiy Yevropada qisqa vaqt ichida osongina va tezda unutilgan, biroq keying asrda yoshlarning texnologik taraqqiyotni oson qabul qilishi va ko'plab sohalar, xususan, siyosat, musiqa, moda kabilarning rivojlanishiga bo'lgan ishonchi ularning jamiyatning muhim qatlami ekanligini ko'rsatib berdi [3,4,5]. Ijtimoiy rolga qo'shimcha ravishda, ularning sayohat qilish motivlari turli davrlardagi boshqa yoshlar segmentlariga nisbatan farq qilishi mumkin, biz bu yo'nalishlarni ilmiy tadqiqotimizning keyingi qismida muhokama qilamiz.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida xalqaro tajribalar asosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida yoshlar sayohati va turizmi ishtirokchilarining turlari, xususiyatlari, motivatsiyalari o'rganildi. Maqolada ilmiy-nazariy, kuzatish va tanlash, empirik kuzatish metodlaridan foydalanilgan. Maqola tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda foydalanilgan xorijiy statistik rasmiy manbalardan, Butunjahon Turistik Tashkiloti hamda Butunjahon Yoshlar, Talabalar, Ta'lim va Sayohat Konfederatsiyasining rasmiy veb-saytidan foydalanish bilan izohlanadi.

Tahlil va muhomakalar. Umuman olganda, xuddi turizm kabi, talaba va yoshlar turizmi ham odamlarning motivatsiyasiga qarab keng ko'lamli shakllardan iborat. Shunisi e'tiborga loyiqki, yosh sayohatchilar yoshlarga xos xususiyatlarga ega turizmning har qanday turiga jalb qilingan bo'lsa, u yoshlar sayohati va turizmiga tegishli bo'lishi mumkin. Yoshlar turizmining juda ko'p turlari mavjud bo'lsa-da, ular orasida quyidagilar eng ko'p uchraydiganlar hisoblanadi: ta'lim turizmi, ko'ngillilik, mehnat va sayohat dasturlari (Work and travel programs), madaniy almashinuv dasturlari, dam olish turizmi, sport va sarguzasht turizmi.

Ta'lim turizmi. Ta'lim turizmida yoshlar tashrif buyurilgan joy bilan bog'liq tajribani o'rganish maqsadida guruh shaklida ma'lum bir joyga sayohat qilishadi. O'z navbatida, mazkur yo'nalishni madaniy meros turizmi, ekoturizm, qishloq turizmi va ta'lim muassasalari o'rtasidagi talabalar

almashinuvi kabi kichik bo'limlarga bo'lish mumkin. Ularning asosiy maqsadi mahalliy yoki xalqaro darajada tashkil etiladigan bio-fan, texnologiya, tarix kabi sohalarida o'z bilimlarini oshirish va ta'lim jarayonini rivojlantirish, chet elda stipendiyalar, yozgi kurslar, guruh ichidagi turistik paketlar, jumladan ekskursiya, til kurslari, har qanday bilim darajasi uchun yozgi oromgohlar bilan ta'minlash orqali dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan. Yoshlar sayohati bo'yicha hozirgi kunda takliflar turlicha bo'lib, bolalar, yoshlar, ularning ota-onalari va buvilari, o'quvchilar, talabalar, bitiruvchilar, ilmiy izlanuvchilar va yosh xodimlar uchun dasturlarni o'z ichiga oladi va dunyoning nufuzli universitetlarida xalqaro miqyosda tan olingan interaktiv muhit bilan birga ilmiy tadqiqot qilish, malaka oshirish va stajirovkalarni ta'minlab beradilar. Erasmus almashinuv dasturi esa ta'lim turizmining eng keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi

Ko'ngillilik. Mazkur atama yoshlarning ma'lum bir davrda, xususan, bayramlarda jamiyatga va atrof-muhitga yordam berish orqali yoshlar o'zlarining nazariy va amaliy bilimlarini oshirish, moddiy qashshoqlikdan qutulishga yordamlashish uchun tadqiqotlar olib borishini anglatadi. Shuningdek, aytish kerakki, bu volontyorlik yoki ko'ngillilik davrida yoshlarning turistik xizmatlarni xarid qilishlari holatlari ham ko'p uchraydi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, volontyorlik XX asrning boshlarida, xususan, Birinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan. Aynan o'sha davrda volontyorlik tashkiloti odamlardagi qayg'u va umidsizlikni bartaraf etish uchun tashkil etilgan bo'lgan. Hozirgacha bu faoliyatlar haqiqatan ham rivojlanish va madaniyatning bir qismi bo'lishni xohlaydigan yoshlar orasida keng ommalashgan. Volontyorlik bilan bog'liq loyihalar qisqa muddatli ta'tildan tortib to uzoq muddatligacha mahalliy yoki xalqaro miqyosda amalga oshirilishi mumkin.

Ko'ngillilik turizmning quyidagi jihatlari olimlar tomonidan izohlangan: "turli sabablarga ko'ra jamiyatdagi ba'zi guruhlarining moddiy qashshoqligini kamaytirishga yordamlashish yoki yengillatish, muayyan muhitni tiklash, ta'lim sohalarini tadqiq qilish uchun tashkiliy ravishda ta'til olib volontyorlik qiluvchi turistlarning faoliyatiga aytiladi". (Wearing, 2001) [3]. "Ko'ngilli turizm odamlarni dunyoning kambag'al qismlariga qandaydir hissa qo'shish uchun olib borishning asosiy motivatsiyasini taqdim etadi." (Crossley, 2012) [4]. Zulhaimi, Halim, & Zawawi (2018) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot talabalarning volontyorlikda ishtirok etishning asosiy motivlari sifatida karyera, ijtimoiy qadriyatlar, dunyoni anglash va mukammallashish deb tasvirlaydi.

JULIE JIE WEN (2019) tomonidan olib borilgan amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'ngillilik faoliyatidan so'ng mahalliy odamlarda ham, ko'ngillilarda ham yaxshi tomonga o'zgarishlar kuzatilgan. Ijtimoiylashuv va o'zaro munosabatlar ular o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga muvaffaq bo'lgan [5].

Mehnat va sayohat dasturlari. Sayohat qilish istagi kuchli bo'lgan yoshlar, odatda, talaba va yoshlar turizmining ushbu turiga murojaat qilishadi. Ko'pincha dastur yozda 3 oy davom etadi, bunda yoshlar boshqa xorijiy kompaniyalarga ishga yollanishadi. Bu vaqt ichida yosh sayyohlar pul ishlash bilan bir qatorda sayohat qilish, mahalliy hayot madaniyatini, ularning tillari va urf-odatlarini o'rganish uchun ajoyib imkoniyatga ega bo'lishadi, bu ularning kelajakdagi karyeralari va istiqbollari uchun muhim poydevor vazifasini bajarishi mumkin. Ish va sayohat dasturlari dastlab AQShda paydo bo'lib, Avstraliya, Kanada va Ispaniyaga tarqalib ketgan bo'lsa-da, u asosan Germaniya, Gretsiya, Ispaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya kabi Yevropa mamlakatlarida keng ommalashgan. Bu yoshlar sayohat bozoriga sezilarli hissa qo'shishadi va o'z navbatida dastur ishtirokchilari xorijda ishlash orqali chet ellik do'stlari bilan mustahkam aloqa o'rnatib muntazam ravishda sayohat oqimini shakllantirish xususiyatiga egadirlar.

Mehnat va sayohat dasturlari asosan yosh talabalarga, balki o'rta maktab va universitet yillari o'rtasida "bir yillik ta'til" olgan yosh bitiruvchilarga mo'ljallangan, shuningdek, faqat yozgi ta'til davrida mazkur dasturda ishtirokchilar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Hisoblanishicha, "dam olish yili" (*gap year*) bo'lgan yoshlar tomonidan amalga oshiriladigan turizm yiliga 1-1,5 million sayohatni tashkil qiladi va bu sayohatlarning aksariyati mustaqil ravishda tashkil etiladi [6].

Eng muhimi, yoshlarning mehnat va sayohat dasturida ishtirok etishlari natijasida erishgan asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ✓ yangi turistik destinatsiyalarga tashrif buyurish;
- ✓ boshqa madaniy muhitda ish tajribasini orttirish;

- ✓ chet tilini mukammallashtirish;
- ✓ butun dunyo bo'ylab turli madaniyatga oid odamlar bilan yaxshi aloqa o'rnatish;
- ✓ o'zini erkin tutish va boshqa tengdoshlari bilan dam olish imkoniyati;
- ✓ kelajak uchun yetarli miqdorda mablag' topish imkoniyati.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham ish va sayohat dasturlari keng tus olmoqda, ayniqsa, yoshlarning ta'limdan so'ng yozgi ta'til oylarida ushbu dastur bilan AQSh va Germaniyaga borishlarini yaqqol ko'rish mumkin..

Madaniy almashinuv dasturlari. Bu atama, shubhasiz, turli mamlakatlar o'rtasidagi yoshlar almashinuviga ishora qilishi mumkin. Ushbu o'ziga xos madaniy almashinuv ta'lim, texnologiya, tibbiyot, san'at va sport kabi turli sohalarga oid ishtirokchilarni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, bir xil yoki o'xshash ma'lum bir narsani targ'ib qilish uchun kamida ikki mamlakat o'rtasida joriy madaniy almashinuv amalga oshirilishi kerak bo'ladi. Ijtimoiy, diniy, madaniy, geografik va iqtisodiy kelib chiqishidan qat'i nazar, odatda madaniy almashinuv ishtirokchilari bo'lgan talabalarga o'z dunyoqarashini kengaytirish, boshqa madaniyatlarni tushunish, o'z mamlakatlaridan tashqarida yangi odamlardan o'rganish uchun ulkan ahamiyatli imkoniyat taqdim etiladi.

Shubhasiz, madaniy almashinuv mamlakatlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni mustahkamlashga, ko'p madaniyatli jamiyatda yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirishda yordam beradi. Ushbu dastur odatda bir haftadan bir yilgacha davom etadi, ishtirokchilar mezbon oilalarda yashashadi. Eng muhimi, almashinuv dasturining asosiy maqsadi *o'rganish va bilim ulashishdir* [7].

Sport va sarguzasht turizmi. Bu davrda sport insoniyat tomonidan eng tan olingan va sevimli mashg'ulotlardan biriga aylandi. Ma'lumki, har yili ko'plab insonlar sport o'yinlarini tomosha qilish yoki sport musobaqalarida qatnashish maqsadida xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurishadi, bu esa mezbon mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda katta hissa qo'shadi. O'z navbatida, sarguzasht turizmi esa yosh sayohatchilar uchun qiziqarli bo'lib, zavq berish xususiyatiga ega. Yuqori darajadagi jismoniy kuch talab qiladigan turistik faoliyat yosh sayohatchilarning sevimli mashg'ulotlari hisoblanadi. Ular ekstremal turlarda qatnashish, tavakkal qilish, yangi joylarni o'rganish orqali yuqori darajadagi adrenalin olishni xohlashadi.


Bunday istak, albatta, ishtirokchilardan turli darajadagi xavflarni talab qiladi, mashg'ulotning turiga turli darajadagi tavakkalni talab qiladi. Juda ko'plab sarguzasht turizmi mashg'ulotlari mavjud: piyoda sayr qilish, tog' velosipedi, muzga chiqish, alpinizm, rafting, vindsurfing, suvga sho'ng'ish, akvalang yordamida suv ostida suzish, arqon bilan sakrash (bungi sakrash), paraplanda uchish, snoubord, jarlikka sakrash, AirKick, Zorbing koptogida harakatlanish, vulqonga chiqish va boshqalar [8].

Greg Richards va Juli Uilson (2004) fikricha, sport va sarguzasht turizmi uchun yoshlardagi asosiy motiv bu hayajonni boshdan kechirish, keyin esa boshqa madaniyatlarni o'rganish hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarda "jismoniy mahoratdan maksimal darajada foydalanish", "qobiliyatlarini sinab ko'rish" va "hayajon izlash" motivlari o'rtasida sezilarli ijobiy bog'liqlik mavjud [9].

Dam olish turizmi. Mazkur yo'nalishni yoshlarning o'qish yoki ishlashdan bo'sh bo'lgan, ayniqsa, dam olish kunlarida bo'ladigan yoki 2 haftagacha davom etadigan, shuningdek, qarindoshlari va do'stlarini ziyorat qilish, ko'ngilochar tadbirlarga qaratilgan dam olish ta'tillari sifatida izohlash mumkin. Asosiy jihati shundaki, ish va o'qishdan holi bo'lgan davrda amalga oshirilishi va sayohatlar dam olish maqsadiga asoslangan bo'lishi kerak. Yosh segment sifatida ular kam mablag' bilan arzon aviakompaniyalar va yotoqxonalarda sayohat qilish xususiyatiga ega bo'lishadi.

Natijalar.

Talaba va yoshlar turizmi turlari



Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

Xulosa. So'nggi 10 yil ichida yoshlar turizmi sohasida jadal o'zgarishlar ro'y berdi, turli ko'rinishdagi muhim tadbir va anjumanlar o'tkazildi, ushbu sohani sezilarli darajada rivojlantirish maqsadida ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Mazkur segment boshqalaridan tarkibiy jihatdan xilma-xilligi va murakkabligi kabi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan. Yosh sayohatchilar soni sezilarli darajada oshib, ularning motivatsiyasi kengayib borayotganligi sababli, yoshlar turizm mehmondo'stlik bozorining eng katta qismini egallash imkoniga ega, kelajakda turistlar oqimi, bozor hajmi, talaba va yoshlar sayohati dinamikasi, uning shakllari albatta yosh sayohatchilarga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Chapman David. Director General. WYSE Travel Confederation 18 October 2016 | World Tourism Conference. New Horizons III Executive summary, Agobal study of the youth and student traveller.
2. Youth Student & Educational Travel Statistics Report 2018. British Educational Travel Association (BETA), London, UK.
3. Wearing, S., and Neil, J. (2001). Expanding Sustainable Tourism's Conceptualization: Ecotourism, Volunteerism and Serious Leisure. In S.F. McCool and R.N. Moisey, eds. Tourism, Recreation and Sustainability, Linking Culture and the Environment, pp.233-255.
4. Crossley, E. (2012). Poor but happy: volunteer tourists' encounters with poverty. Tourism Geographies, 14(2):235-253.
5. Zulhaimi, N., Halim, M. S. A., & Zawawi, M. M. A. (2018). The Motives of Volunteerism Involvement in the Tourism Sector. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, 8(6), 290-304.

6. Julie Jie Wen (2019). The Impact of Volunteer Tourism: Case Study of Meixian Team. *International Journal of Social Sciences*, Vol. VIII(1), pp. 81-94., 10.20472/SS.2019.8.1.007
7. Uktamovna, A. N. (2023). The foreign countries' experience on tourism and youth policy. *Journal of new century innovations*, 31(1), 125-131.
8. Akhrova, N. U. (2022). Swot Analysis in Youth Tourism Development Strategies for Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(12), 26-33.
9. Uktamovna, A. N. (2023). The differences and characteristics of young travellers. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(5).

YŷK 333.344.233

MINTAQADA KAMBAG'ALLIKNI QISQARISHNI OMILLARI**J.F.Babajanov, tayanch doktorant, Urganch Davlat universiteti, Urganch**

Annotatsiya. Maqolada mintaqada kambag'allikni qisqartirish omillari tahlil qilingan. Xorazm viloyati misolida kambag'allik xolati o'rganilgan va uni kichik biznesni rivojlantirish asosida qisqartirish yuzasidan, takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kambag'allik, kambag'allik chegarasi, eng kam ish haqi, iqtisodiy faol qatlam, yashash minimum.

Аннотация. В статье анализируются факторы снижения бедности в регионе. На примере Хорезмской области изучена ситуация с бедностью и высказаны предложения по ее снижению на основе развития малого бизнеса.

Ключевые слова: Бедность, черта бедности, минимальная заработная плата, экономически активный класс, прожиточный минимум.

Abstract. The article analyzes the factors of poverty reduction in the region. On the example of Khorezm region, the situation of poverty was studied and suggestions were made to reduce it on the basis of small business development.

Keywords: Poverty, poverty line, minimum wage, economically active class, living minimum.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning so'nggi yillarda tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab hukumat qaror va farmonlari qabul qilindi. Buning natijasida hukumat ko'plab ishbilarmonlarga o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda yordam bermoqda, provardada ishsizlik darajasi pasayib, mamlakat iqtisodiyoti yaxshilanmoqda. O'zbekistonda kambag'allik muammosini hal etish ijtimoiy siyosatda alohida o'rin egallaydi, unga qarshi faol kurash oxirgi yillarda jadal tus oldi. Aholining ehtiyojmand qatlamini manzilli qo'llab-quvvatlash maqsadida ma'lumotlar bazalari shakllantirildi. 2021 yildan boshlab kam ta'minlanganlarni "Ijtimoiy himoyaning yagona reyestri" axborot tizimiga kiritish orqali hisobga olish mexanizmi joriy etilgan. 2017 yilda 500 ming nafar kam ta'minlangan oilaga ijtimoiy yordam ko'rsatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ushbu ko'rsatkich 2,2 milliondan ziyodni tashkil etmoqda. Ajratilgan mablag'lar hajmi yetti baravar oshirilib, yiliga 13 trillion so'm (1,1 milliard dollar)ga yetkazildi[1].

Mamlakatimiz Prezidentining 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurish, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratish va kambag'allikni qisqartirish maqsad qilingan.

Shundan kelib chiqib, ijtimoiy sohaga davlat xarajatlarini oshirish vazifasi qo'yildi. Xususan, 2018 yilda ular 39 trln, 2019 yilda 61,3 trln, 2020 yilda 74,2 trln[2], 2021 yilda 85,3 trln so'mni tashkil etgan. 2022 yilda esa 105,5 trillion so'm yo'naltirilgan[3].

Shu yilning 25 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida "Kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash masalalari"ga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish jarayonlari yuqori samaradorlikni namoyish etayotganini ta'kidlandi.

Bu borada Xorazm viloyatda ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. KBXT sub'ektlari sonini oshirish o'z navbatida Xorazm viloyatining iqtisodiyotda bandlar sonini oshishiga olib keldi. Xususan, 2010 yilda Xorazm viloyatining iqtisodiyotda bandlar soni 642 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa,